

Date: 1st November-2025

**XIX-XX ASR BOSHLARIDAGI SHIMOLIY BUXORO
QORAQALPOQLARINING KICHIK GURUHLARI VA ULARNING XO‘JALIGI**

Mamatsharipov Nurxan

Navoiy davlat universiteti Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq kafedrası
o‘qituvchisi



XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida xo‘jalikning uzoq davom etgan inqirozi va siyosiy parchalanish davridan so‘ng, O‘rta Osiyoning uch markazida - Buxoroda, Xivada va Qo‘qonda xo‘jalik jihatidan bir qancha mustahkamlanishlar boshlandi. XVI asrdayoq paydo bo‘lgan Buxoro xonligida XVIII asr o‘rtalaridan boshlab mang‘itlar sulolasi hukmronlik qildi. "XVIII asrning o‘rtalarida Buxoro shahri atrofidagi hududlargina (Bobkent, G‘ijduvon, Vardonze, Qorako‘l va boshqalar) Qashqadaryo viloyati hamda Miyonko‘l vodiysiga egalik qilardi."³⁸ Xo‘jand, Toshkent, Hisor, vaqti-vaqti bilan Shahrisabz, Nurota va Amudaryoning chap qirg‘og‘idagi viloyatlar - Balx, Badaxshon va boshqalar Buxoro xonligiga bo‘lgan vassallik mustaqilligini saqlab qoldi. Biroq mang‘it sulolasining birinchi xoni Muhammad Rahim (1753-1758) "Yerlarni Buxoro atrofiga to‘plash" - markazlashtirish siyosatini olib borishni boshladi. Markazlashtirish kurashi uning merosxo‘rlari o‘rtasida ham davom etdi. Shunday qilib, XIX asr boshlarida "Buxoro xonligi Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari tashqarisida joylashgan Surxondaryo viloyatini, hozirgi Tojikistonning eng ko‘p aholi yashaydigan viloyatlari, Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent va Turkistonning katta qismini o‘z ichiga oldi. Turkistonning bir qismi Murg‘ob (Murg‘ob ham kiradi) bilan chegaradosh bo‘lib, Turkiston shahri viloyatlari bilan chegaradosh barcha hududlar kiritilgan."³⁹

XIX asr o‘rtalarida Buxoro xonligida yarim tobe yer Shahrisabz bo‘ldi. Hisor va Zarafshonning yuqori qismi vaqti-vaqti bilan mustaqil bo‘lib turdi. Uzlaksiz urushlar mehnatkashlar ommasining ahvoliga alohida og‘ir ta‘sir qilib, ularni butunlay telbalikka olib keldi.

Xonliklardagi ahvol juda og‘ir bo‘lgan. Ruhoniylarning kuchli ta‘siri xalq turmushining barcha tomoniga yoyilgan. Xalqning butun hayoti shariat qoidalari bilan belgilanishi lozim bo‘lgan, va bu qoidalarni buzuvchilarni tayoq yoki qamchi bilan savalagan, zindonga tashlagan, ba‘zan o‘lim jazosiga hukm qilgan.

Quyi va o‘rta Sirdaryodan ko‘chishga majbur bo‘lgan qoraqalpoqlar yangi qo‘nim topganda doimo o‘zlariga qulay joylarga, ya‘ni, katta daryolarning quyilish joyi va vodiylariga joylashishga uringan. Agar qoraqalpoqlarning "quyi" guruhleri, asosan, Amudaryoning etagiga joylashgan bo‘lsa, bu guruhning kichik bir qismi Ural va Volga daryolarining vodiylariga joylashgan. Endi "yuqori" qoraqalpoqlar Zarafshon daryosining vodiylariga (Buxoro xonligida) va yuqori Sirdaryo bilan uning irmog‘i Qoradaryo bo‘ylab, Farg‘ona vodiysiga (Qo‘qon xonligida) joylashgan. Bunday ko‘chib-qo‘nishlar

³⁸ История Узбекской ССР, т. I, кн. II., Ташкент, 1956 г., 9-бет.

³⁹ История Узбекской ССР, т. I, кн. II. Ташкент, 1956 г

Date: 1st November-2025



qoraqalpoqlar xo'jaligining kompleks xarakterda ekanligini ko'rsatadi. Chunki, ular asosan, dehqonchilik, chorvachilik (qoramollarni boqish ustunroq bo'lgan), baliqchilik va uy hunarmandchiligi bilan shug'ullangan. Bularning ichida qamishdan bo'yra to'qish bosh rol o'ynagan. Bunday xo'jalikni yuritish uchun katta daryolarning vodiylarida qulay sharoit topish mumkin bo'lgan. Xo'jalikning bunday tipi juda qadimgi asrlardan ma'lumot beradi. Orol bo'yini yaylagan qoraqalpoqlarning ota-bobolari massagetlarga, eftalitlarga, o'g'uz-peche-neg qavmlariga olib keladi. Xo'jalikning bu tipi XVII-XVIII asrlardagi Sirdaryoning quyi oqimidagi qoraqalpoqlarda ham saqlangan, buni rus sayyohlarining ko'rsatmalaridan, shuningdek, XIX asrdagi Amudaryo qoraqalpoqlaridan ham ko'rish mumkin. Shuningdek, xo'jalikning bu tipini "yuqori" qoraqalpoqlar O'zbekistonning janubiy viloyatlariga ko'chib borgan vaqtida ham saqlab qolgan. P. Richkov 1762-yildayoq bunday deb yozgan edi: "Bu yuqori qoraqalpoqlar Orol dengiziga quyiladigan Sirdaryo irmoqlaridan boshlab yuqori Toshkentgacha yashaydi. Ular dehqonchilikdan va juda ko'p bo'lgan chorva mollarni boqishdan oziq-ovqat topgan, qishda qora uylarda turgan, yozda esa ko'chib yurgan".⁴⁰

Yangi joylarga, katta daryolarning vodiylariga o'rinish olib, qoraqalpoqlar uzoq vaqt davomida o'zlari uchun odatiy bo'lgan turmushni kechirgan.

Zarafshon qoraqalpoqlari ham qulay joylarga joylashgan. Oq-Tepemitan qishlog'idan (Samarqand viloyati Bulung'ur tumanining Bulung'ur sovxozidan) informator T. Yaxshimuratovning aytishiga qaraganda, qora-qalpoqlar Zarafshon vodiysiga ko'chib kelgandan keyin dastlabki vaqtlarda bu yerning suvi juda ko'p bo'lib, ko'p hududlarni Zarafshonning suvi bosib ketgan, hamma yer o'tloq, qamishzor, jing'ilzor bo'lgan.⁴¹ Zarafshon vodiysida qoraqalpoqlar dastlab o'zlarining odatiy xo'jaligi bo'lgan qayirga dehqonchilik qilish, chorvachilik, rivojlangan uy hunarmandchiligi bilan, va, qo'shimcha xo'jalikning yordamchi tarmog'i sifatida ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Boy qoraqalpoqlarning xo'jaligida chorvachilik katta rol o'ynagan, bu xo'jalik, asosan, Zarafshon vodiysidan shimolda Goduntog'ning etagida joylashgan. "Qadimdan o'troq odamlarning gapiga qaraganda,- deb yozadi A. D. Grebenkin, - bu urug'ning katta podaga ega bo'lgan boylari Goduntovda va shu tog'ning etagida, kambag'al aholi esa Zarafshon daryosining etagida to'xtagan".⁴²

Yerlar asta-sekin quritila boshlagan (bunga Zarafshon toshqinining kamayishi ham sabab bo'lgan), sug'orish kanallari qazilgan, binobarin, dehqonchilikning ahamiyati kuchaya boshlagan. Samarqand qoraqalpoqlarining o'troqlikka va xo'jalikning asosiy tarmog'i sifatida dehqonchilikka o'tishi XVIII asrning oxirida, Shamurat biyning hukmronlik qilgan vaqtidan boshlab kuchayganligi yozma manbalardan ma'lum. Biroq qoraqalpoqlarning o'troqlikka va g'allachilikka o'tishi xitoy-qipchoqlarning (1821-1825)

⁴⁰ П., Рычков. Топография оренбургской губерний, 1712. 26-бет.

⁴¹ Л. С. Толстова. Материалы этнографического обследования группы «каракалпак» Самаркандской области УзССР, 37-бет.

⁴² А. Д. Гребенкин. Узбеки, Русский Туркестан, Сборник изданный по поводу политехнической выставки, М. 1872, вып. II 95-96 бет.

Date: 1st November-2025



qo'zg'oloni (bunga qoraqalpoqlarning ham faol qatnashganligi ma'lum) Amir Haydar tomonidan bostirilgandan keyin ayniqsa kuchaydi. Bu qo'zg'olonning bostirilishi ko'pchilik aholining qashshoqlashuvi, xususan, aholining moldan mahrum bo'lishi bilan yakunlangan. "Qipchoq va xitoylarga ittifoqchi sifatida qoraqalpoqlarning Sayid amir bilan bo'lgan urushlari natijada ularni qashshoqlikka olib keldi va o'troqlikka hamda g'allachilik bilan shug'ullanishga majbur etdi.⁴³

Zarafshon vodiysida yashovchi qoraqalpoqlarning asosiy qishloq xo'jalik ekinlari sholi, jo'xori, tariq, bug'doy va arpa, shuningdek, tarvuz va qovun bo'lgan.

Biroq, Zarafshon qoraqalpoqlarining xo'jaligi Buxoro xonlarining hukmronlik qilgan barcha davrida o'zining ma'lum kompleksligini saqlab qolgan. Ular dehqonchilik bilan bir qatorda, xo'jalikning asosiy tarmog'i sifatida chorvachilik bilan (qoraqalpoqlarning ko'pchilik ko'pchiligi) yaylov uchun o'z maskanlarining atrofidagi pichanlardan va o't-xashaklardan foydalangan. Baliqchilik bilan (ular baliqni Zarafshon daryosidan, shuningdek, ko'llar, irmoqlari va ariqlaridan ovlaganlar), ovchilik bilan (quyon, o'rdak, g'oz, qirg'ovul va h.k.) va uy hunarmandchiligi bilan shug'ullanganlar (bular ichida gilam to'qish alohida ko'zga tashlangan).

Yangidaryodan Nurota va Konimexga tutashgan sahrolarga ko'chib borgan qoraqalpoqlarning kichik guruhi boshqalarga qaraganda juda boshqacha tabiiy sharoitlarda kun kechirgan. Ilgari yashagan yerida dehqonchilik bilan shug'ullanganligi (tariq, arpa, bug'doy va h.k. ekish) haqidagi esdaliklar Konimex qoraqalpoqlarining yodida hozirgacha saqlangan. Bu yerda, sahrolarda xo'jalikning bunday turini olib borish uchun sharoit yo'q edi, shuning uchun ham, qoraqalpoqlarning bu mayda guruhi qo'shni qozoqlardagi ko'chmanchi chorvachilikni o'zlashtirib olgan, bunda ko'pincha mayda mollar, bundan tashqari, tuya va yilqi boqqan.

Chorvachilikdan qoraqalpoqlar, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan jun olgan, bu jundan ular qo'shni kazaklar singari kigiz bosib, palaslar (alacha, juda murakkab naqshlar solingan tuksiz olacha-gilam), xurjun, karshin va qora uylarni bezash uchun bog', bosh-qurlar to'qigan. Qoraqalpoqlar ba'zi qishlovlarda bug'doy va arpa ekan. Nurota tog'lariga kiradigan Qorator tizmalarining etaklarida oz-moz ekinlarni (ko'pincha, poliz ekinlari - tarvuz, qovun) sug'orish uchun tog'dan oqib turgan buloq va o'zanlardan foydalanilgan. Tulki, suvsar, qoraquloq, quyon va kiyik ovlash xo'jalikning qo'shimcha tarmog'i hisoblangan. Qoraqalpoqlar mollarini, chorvachilik mahsulotlarini va uy hunarmandchiligi buyumlarini, shuningdek, hayvon terilarini Nurota, G'ijduvon va Konimex bozorlarida sotib, o'zlari uchun yetishmagan dehqonchilik mahsulotlari bilan hunarmandchilik buyumlarini sotib olgan. Bundan tashqari, kambag'allar saksovuldan ko'mir va Tuz Qon ko'lidan tuz tayyorlash bilan shug'ullangan, tuz va ko'mirni ham bozorlarda sotishgan.

⁴³ А. Д. Гребенкин. Узбеки, 96-бет.